

IMPROVING MECHANISMS OF SPIRITUAL-AESTHETIC DEVELOPMENT OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Zokirova Umida Ilhomovna

Jizzax Davlat Pedagogika universiteti o'qituvchisi

ABSTRACT

In this article, the spiritual and aesthetic development of students, the historical roots of spiritual education, respect for national principles, national pride with national confidence, and universal human values are based on ensuring the effective implementation of the national personnel training program.

Keywords: Spiritual-aesthetic development, respect for ancestors and their heritage, education of national virtues, national-ethical tradition, national-universal values, mastery of creative levels, realization of the national idea.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarni ma'naviy-estetik rivojlantirish, ma'naviy ta'larning tarixiy ildizlari, milliy tamoyillarga hurmat, milliy g'urur milliy ishonch bilan, kadrlar tayyorlash milliy dasturining samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье духовно-эстетическое развитие обучающихся, исторические корни духовного воспитания, уважение к национальным принципам, национальная гордость с национальным доверием, общечеловеческие ценности базируются на обеспечении эффективной реализации национальной программы подготовки кадров.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-estetik rivojlanish, ajdodlar va ularning merosiga hurmat, milliy fazilatlarni tarbiyalash, milliy-axloqiy an'ana, milliy-umuminsoniy qadriyatlar, kreativ darajalarini puxta egallah, milliy g'oyani amalga oshirish.

Ключевые слова: Духовно-эстетическое развитие, уважение к предкам и их наследию, воспитание национальных добродетелей, национально-этическая традиция, национально-общечеловеческие ценности, овладение творческими ступенями, реализация национальной идеи.

Respublikamizda oliy ta'limni rivojlantirish, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarni o'zbek xalqining badiiy merosining yuksak estetik qadriyatlar negizida ma'naviy-estetik rivojlantirishda kasbiy kompetentligini tarkib toptirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlardan bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik rivojlantirishda foydalananish imkoniyatlari kengaytirilgan. O'zbekiston Respublikasini ya'nada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli

ta'lrim hizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishi" ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Natijada bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik rivojlantirish, mexanizmlarini rivojlantirishning pedagogik texnologik hamda innovatsion faoliyatining takomillashtirishning reproduktiv, produktiv, qisman izlanuvchi va kreativ darajalarini puxta egallashlari uchun pedagogik shart-sharoitlar va didaktik imkoniyatlarini ta'minlash dolzarblik kasb etadi.

Yangi avlod pedagog kadrlarini tayyorlash vazifasi, shu jumladan ma'naviy-estetik rivojlantirish, milliy g'oyani amalga oshirishga yordam beradi.

Ma'lumki, ma'naviy poklanish umuminsoniy ma'naviyatni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat quyidagilarni: ma'naviy va ma'rifiy rivojlanish; ijtimoiy va didaktik taraqqiyot; falsafiy-pedagogik taraqqiyot; diniy ta'lism; milliy axloq normalariga bo'y sunish; ilmiy ta'lism; qarashlar pokligi va tafakkur ravshanligi; milliy tamoyillarga hurmat; vatanparvarlik, xayrixohlik, millatchilik, adolat tuyg'ulari; fidoyilik, mardlik, jasorat, tashabbuskorlik; mamlakat va xalq mustaqillagini himoya qilishga va ularga xizmat qilishga tayyorlik; huquqiy qat'iylik va benuqsonlik; islom diniga ishonch; ajdodlar va ularning merosiga hurmatni shakllantiradi. Ushbu kontseptual yo'naliishlar ma'naviy ta'larning metodologik asosiga aylanishi kerak. Bu ma'naviy ta'larning asosiy yo'naliishlarini belgilaydi: ma'naviy ta'larning tarixiy ildizlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratishni taqozo qiladi (milliy ma'naviyat talab qilganidek).

Ma'naviyat milliy xususiyatlar va quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linadi: "madaniy-ma'rifiy yuksalish; ijtimoiy-didaktik rivojlanish; falsafiy-pedagogik taraqqiyot; qat'iy ishonch; milliy axloq, odob-axloq me'yorlariga to'liq muvofiqliq; insonda yuqori axloqiy fazilatlarni chuqur shakllantirish: insonparvarlik, vatanparvarlik, xayrixohlik, adolat tuyg'usi, milliy qadriyatlarni sevish, o'zini qurban qilish, jasorat, tashabbuskorlik, poklanish; islomga ishonch bilan munosabatda bo'lish, har doim vatan va xalq mustaqillagini himoya qilishga tayyorlik va ularga sadoqat; ajdodlarga, ularning merosiga va shu kabilarga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish. Nazarimizda, milliy ma'naviyatning asosiy vazifasi, uning asosiy mohiyati va tarkibiy qismi quyidagilardan iborat: birinchidan, islohotlarning hozirgi bosqichida, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxslarni tarbiyalashga e'tiborni yanada kuchaytirish; ikkinchidan, halollik, axloq va poklik xalq xo'jaligining barcha sohalarida to'liq yutuqqa erishish; uchinchidan, milliy qadriyatlarni to'la tiklash va shu asosda milliy g'urur hissini shakllantirish.

Milliy g'urur milliy ishonch bilan bog'liqdir. Quyidagi milliy e'tiqodlar nazarda tutilgan: do'stlik va ijtimoiy hamjihatlikda yashash va ishlash; kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g'amxo'rlik qilish, vatanni sevish; ota-onanalarni hurmat qilish va ota-ona oldidagi burchni bajarish; oila va bolalarga g'amxo'rlik qilish; millat ajratmaslik; hashar an'analarini davom ettirish va ko'paytirish (ba'zi bir ishlarda beg'araz yordam); ota-onalarning urf-odatlariga sodiq qolish, mehnatsevarlikni namoyon etish; doimiy ravishda bilimga ega bo'lish; islom diniga hurmatni saqlash; ichki va tashqi siyosatni mustahkamlashga hissa qo'shish; ma'naviy-axloqiy marosimlarning rivojlanishi va shakllanishiga ta'sir ko'rsatish va ularga rioya qilish; milliy madaniyatlarni rivojlantirish; milliy-axloqiy an'ana normalariga rioya qilish; Vatan va xalqlar tarixini hurmat qilish; yoshlarni o'qitish va tarbiyalashga alohida e'tibor berish, uning rivojlanishiga g'amxo'rlik qilish va hokazolar. Ushbu e'tiqodlarni odamlar va ayniqsa yosh avlod ongiga singdirish mustaqillik uchun sharoit yaratib beradi va mustaqillik ruhini

tarbiyalashga yordam beradi. Bu yoshlarni o'qitish va tarbiyalashga alohida e'tibor berishga, uning rivojlanishi - milliy madaniyat asosida amalga oshirilayotgan milliy e'tiqod yo'nalishi bo'yicha g'amxo'rlik qilishga chorlaydi.

Ma'naviy tarbiyada tarbiya tarixiga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega: tarbiyaning har qanday sohasida, buyuk ajdodlarimizning tarbiyalash tarixi, tajribasi va didaktik-axloqiy, aforistik bayonlarini o'rganish keyingi vazifalarni hal etishda beqiyos rol o'ynaydi, chunki ma'naviyat va axloq tarixi kelajak avlod uchun mash'aldir. O'z asarlarini ma'naviy-ma'rifiy masalalarga bag'ishlagan buyuk ajdodlarimiz: Abu Abdullo Mu'ammad ibn Muso al Xorazmiy (780-850), imom Buxoriy (810-870), Ahmad ibn Xambari al Marvasiy (780-855), Imom at Termizi (824-892), Abu Nasr Forobiy (870-930), Abu Rayxon Beruniy (970-1048), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Yusuf Xos Hojib, Xoja Ahmad Yassaviy (1044-taxminan 1166-1170), az Zamaxshariy (1070-1143), SHayx Najmuddin Kubro (1145-1221), Paxlavon Mahmud (1247-1326), Alisher Navoiy (1141-1501), Ogohiy (1809-1914) va boshqalar. SHuningdek, XIX asr - XX asr boshlarida yashagan va ishlagan olimlar - Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat shular jumlasidandir. Milliy-ma'naviy tarbiyalash - bu ma'lum milliy-madaniy bilimlarning yig'indisi, yuqori milliy fazilatlarni tarbiyalovchi - ta'lim jarayonining maqsadi va natijasi sifatida ifodalananadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi aynan shunday yo'nalishga, shunday ta'limning qadriyatlariga qaratilgan. SHuningdek, o'quv jarayonida shaxs, uning individualligi, qobiliyatları, moyilliklari va qiziqishlari, qadriyatli yo'nalishlari va shaxsiy tajribasi, bilim va ta'lim faoliyatida o'zini namoyon qilish imkoniyatlariga (pedagogik hamkorlik va ijodiy o'zaro ta'sirni hisobga olgan holda) qaratilgan.

Milliy dastur nafaqat talabalarning qobiliyati va iqtidorini olib berishga, balki xalqning yuksak madaniy-tarixiy merosiga asoslangan milliy va umumbashariy g'oyalar va qadriyatlarni o'zlashtirishga qaratilgan. Jamiatning ma'naviy yangilanishi talabalarning ma'naviy tarbiyasi va rivojlanishining ustuvorligini talab qiladi. Milliy dastur, shuningdek, ushbu imkoniyatni ta'lim tizimiga - eng yuqori milliy-umumbashariy qadriyatlarni inobatga olgan holda izchil o'z ichiga oladi. Xalqning ma'naviy, madaniy, axloqiy-estetik merosi, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar barcha o'quv va kasbiy dasturlarda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning yangi strategiyasida ta'lim omili qayta ko'rib chiqilmoqda, asosiy e'tibor ma'naviy-axloqiy va, albatta, ma'naviy-estetik tarbiyaga, shuningdek ushbu ta'limning ijodiy-innovatsion yondashuvi, tarbiyaning qadriyatli-shaxsiy mezonlariga qaratiladi. SHaxsni tarbiyalash va rivojlantirishda pedagogika fani milliy-madaniy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Kadrlar tayyorlashda bu juda muhim vazifaga aylanadi. SHu bilan birga, davlat milliy-umuminsoniy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlash va o'qitishning kafolati bo'lib qolmoqda. Bu yo'nalishda fan muhim rol o'ynaydi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining samarali amalga oshirilishini ta'minlash uchun tadqiqotlar olib borilmoqda, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifati yaxshilanmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha jabhalarida o'quv jarayonini metodik ta'minlash bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Ma'naviy-estetik rivojlantirish - estetik tarbiyaning ajralmas qismidir. Bu tabiatda, hayotda, san'atdagi yuqori estetik hodisalarining qayta shakllantirilishi natijasida paydo bo'lgan estetik hissiyyotlar, qiziqishlar, bilimlar, ehtiyojlar, intellektual, estetik-ijodiy rivojlanish, shakllanish

va qanoatlanish jarayonlaridir. Insonning ma'naviy-estetik fazilatlarini, birinchi navbatda, milliy-badiiy xazina "abadiy qadriyatlar"ni ifoda etuvchi milliy-badiiy merosda shakllantirishdir. Pedagogik kadrlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-estetik rivojlantirish uzoq davom etadigan ijtimoiy mohiyatga ega muammodir. Bu pedagogik kadrlarni tayyorlash sifatini oshirishi, ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini va, albatta, davlat ta'lif siyosati va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishga yordam beradi. Yangi avlodning yuqori intellektual va ma'naviy boy o'qituvchisi - yuqori milliy-ma'naviy va umumbashariy fazilatlarga ega, har tomonlama rivojlangan, ijtimoiy talabga ega shaxs tarbiyalanadi.

Xulosa o'rnida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik rivojlantirish muammosini hal qilish, birinchi navbatda, shaxsning ma'naviyati va ma'naviy rivojlanishi bo'yicha davlat ta'lif siyosatining "Ta'lif to'g'risida" gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek, zamonaviy olimlarning ma'naviyat, ma'naviy tarbiya to'g'risidagi izlanishlari metodologik pozitsiyalari asosida ko'rib chiqilishini talab qiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini maqsadli o'rganish zarur va uning asosida o'rganilayotgan muammoni hal qilish uchun nazariy, metodologik va tashkiliy-pedagogik ko'rsatmalarni aniqlash zarur.

Pedagogik kadrlarni ma'naviy-estetik rivojlantirishda badiiy meros muammosini uslubiy jihatdan ko'rib chiqish, bo'lajak o'qituvchilarni o'qitishning ijtimoiy-pedagogik shartlarini aniqlash muhimdir. Bir qator zaruriy mezon, tushuncha va atamalarni ko'rib chiqish, ayniqsa: "ma'naviy-estetik tarbiyalash" kabi tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. "Badiiy qadriyatlar asosida ma'naviy-estetik rivojlantirish", "bo'lajak o'qituvchilarning o'zbek xalqining badiiy merosi asosida ma'naviy va estetik rivojlantirish". Davlat ta'lif siyosati darajasida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-estetik rivojlantirishning metodologik asoslari, pedagogik kadrlar uchun ishlab chiqilgan ma'naviy-estetik rivojlanish mezonlari, talabalarni ma'naviy-estetik rivojlantirish jadval va pedagogik tizimi, pedagogik kadrlarni ma'naviy-estetik rivojlantirishning metodologik, nazariy, uslubiy va nazariy asoslarining muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur shart-sharoitlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent: TGPU, 2003. – 198 s.
2. Ibragimov X.I, Abdullaeva SH.A. Pedagogika tarixi va ta'lif. Tashkent: Fan, 2008. – 225 b.
3. Nadjimov G.N. Xalq an'analari va madaniyati. Toshkent: Uzbekiston, 1992. 101 b.
4. "Xalq ta'lifi" ilmiy-metodik jurnali. 2021. № 3. Talabalarni ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning ijtimoiy asoslari. 34-36 b. Feroza Oripova.
5. «Scientific progress» Scientific Journal. Бўлажак ўқитувчиларни бадиий меросининг юксак эстетик қадриятлари асосида маънавий-эстетик тарбиялаш (pp. 428-433) У.И. Зокирова.